

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13827628>

QASHQADARYO OKRUGINING MARKAZI SIFATIDA QARSHI SHAHRINING RIVOJLANISH TARIXI

To‘rayeva Nozliya

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo okrugining tashkil etilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Qarshi shahrining okrug markazi sifatida tutgan o’rnini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, ma’muriy bo‘linish, Qashqadaryo, okrug, Qarshi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о создании Кашикадарыинской области. Также проанализирована роль города Карши как центра района.

Ключевые слова: Узбекская CCP, административное деление, Кашикадарья, округ, Карши.

Annotation. This article provides information about the establishment of Kashkadarya region. Also, the role of the city of Karshi as the regional center was analyzed.

Keywords: Uzbekistan SSR, administrative division, Kashkadarya, region, Karshi.

1920-yilda Buxoro amirligi tugatilib, BXSRning tashkil etilishi bilan sovetlar hokimiyati o’rnatildi. 1921-yil 4-martda Moskvada BXSR bilan RSFSR o’rtasida ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Bu rasmiy hujjatlar asosida Buxoro davlatining sovet Rossiyasiga harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan har tomonlama bog‘liq bo‘lib qolganligi qonuniy belgilab qo‘yildi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, o‘lkada sovetlar rejimiga qarshi qurolli harakatlar keng ko‘lamda bo‘lib o‘tdi. Qashqadaryo vohasi ham sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat o‘choqlaridan biri sanalgan. Bu davrda Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatgan qo‘rboshilar o’rtasida Turdi To‘qsoba va Tangri Berdi Dodxoh ham alohida ajralib turgan¹.

1 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B. 221.

Rossiyadagi bolshevistik hukumat BXSR hukumatiga doimiy ravishda tazyiq o‘tkazib keldi. 1923-yil 3-iyunda Moskvadan kelgan bir guruh komissiya BXSR hukumati ishlaridan qoniqmayotganligi hamda “sotsialistik o‘zgarishlarni” jadallashtirish lozimligini ta’kidladilar. Buxoro hukumatida kommunistlarning ta’siri tobora kuchayib borib, hukumat tarkibi “tajribali sovet xodimlari” bilan to‘ldirib borildi. Natijada 1924-yil 18-20-sentabrda bo‘lib o‘tgan Butunbuxoro xalq vakillarining V Qurultoyida BXSR Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi. BSSRning tuzilishi communistlar tomonidan sun’iy tarzda amalga oshirilgan hodisa bo‘ldi. Oqibatda taraqqiyotning demokratik yo‘li inkor etilib, “sotsialistik yo‘nalish” tanlandi. 1924-yil noyabrida BSSR tugatilib, uning hududlari O‘zSSR va TSSR tarkibiga kiritildi¹.

1925-yil 29-yanvarda O‘zbekiston SSRda ilk bor ma’muriy-hududiy bo‘linish o‘tkazildi. Dastlabki 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm), alohida Konimex rayoni va keyinchalik, Tojikiston ASSR tashkil topdi. Bu paytda O‘zbekiston SSR tarkibida 23 ta uyezd va 241 ta volost (bo‘lis) bo‘lgan. Revkomning qarori qabul qilinib, O‘zbekistondagi volostlar va uyezdlarning ma’muriy markazlari belgilandi va shaharlar ro‘yxati tasdiqlandi². 1926-yil 29-sentabrda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi 5-sessiyasining rayonlashtirish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Bu qaror “Правда Востока” gazetasida 1926-yil 18-oktabrda ham e’lon qilindi. Unga muvofiq O‘zbekiston SSRda ma’muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi hamda viloyatlar, uyezdlar va volostlar tugatildi. 1926-yil sentabr-oktabr oylarida O‘zbekiston SSRda 10 ta okrug, ikkita maxsus tuman (rayon) tashkil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston SSR tarkibida 1925-1929-yillarda Tojikiston ASSR, 1936-yildan Qoraqalpog‘iston ASSR ham bo‘lgan.

O‘zbekiston SSR MIQning rayonlashtirish komissiyasi tomonidan 1926-yil o‘rtalarida Qashqadaryo viloyatining Behbudiy, G‘uzor va Shahrisabz uyezdlari

1 Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Toshkent, 2012. 426-bet.

2 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko’rsatilgan asar, 313-bet.

o‘rnida Qashqadaryo okrugini tuzish loyihasi ishlab chiqildi. Loyihada okrug markazi qilib Behbudiy (hozirgi Qarshi) shahri belgilandi. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Qashqadaryo okrugida quyidagi 8 ta tuman rayonlashtirish komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan: Koson, Beshkent, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, G‘uzor, Tangiharam¹. Qashqadaryo okrugining hududi shimoldan Samarqand va O‘rta Zarafshon okruglari bilan, janubi-g‘arb va janub tomonidan Turkmaniston SSR bilan, sharqdan Sirdaryo okrugi bilan, shimoli-sharqdan esa Tojikiston ASSR bilan chegaralangan. Okrugning umumiy maydoni 26 289 chaqirimni tashkil etgan².

Qashqadaryo okrugining umumiy aholi soni 434 494 kishi bo‘lib ularning 62 374 nafari (14,3 foiz) shahar aholisi, 372 120 nafari (85,7 foiz) esa qishloq aholisi hisoblangan. Okrug bo‘yicha qishloq aholisi jami 77 320 ta xo‘jalikdan (xonadondan) iborat bo‘lib, uning 1154 ta xo‘jaligi ko‘chmanchi aholi bo‘lgan. Ular jami okrug aholisining 1,5 foizini tashkil etgan.

Okrug hududida shahar va shahar tipidagi manzillarga Behbudiy, Shahrisabz, G‘uzor va Kitob kirgan. Okrug bo‘yicha qishloq va shahar aholisining zichligini hisobga olganda o‘rtacha 1 chaqirimga 14 kishi to‘g‘ri kelgan. Okrugning ko‘chmanchi aholisi asosan Tangiharam tumani, Yakkabog‘ va Kitob tumanlarining ayrim qismlarida istiqomat qilgan. Okrug aholisi kichik-kichik yashash punktlari (qishloqlar) da joylashgan bo‘lib, bunday qishloqlarda xo‘jaliklar soni 10 dan 100 tagacha bo‘lgan. Aholining bunday joylashuvi deyarli barcha tumanlarda o‘z ifodasini topgan.

Qashqadaryo okrugida qishloq xo‘jaligi o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘lib, asosiy tarmoq hisoblangan. Qishloq xo‘jaligi hududning shart-sharoitidan kelib chiqib turlicha bo‘lgan. Masalan, vohalarda dehqonchilik, cho‘l hududlarida esa asosan chorvachilik bilan shug‘ullanilgan. Okrugning umumiy ekin maydoni 159 558 desyatina bo‘lib, shundan 81 927 desyatina yer sug‘oriladigan, 66 655 desyatina yer esa lalmikor yerlar hisoblangan. Aholining okrug bo‘yicha tomorqa yerlarining umumiy miqdori 226 213 desyatinani tashkil etib, okrugdagi 77 320 ta xo‘jalikning har

1 Tangiharam – Qashqadaryo viloyati tarkibidagi hozirgi Dehqonobod tumani nomi. 1925-yilda tuman Tangiharam nomi bilan tashkil qilingan. 1935-yili tuman nomi rasmiy-ma’muriy tarzda Dehqonobod deb o‘zgartirilgan.

2 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar, 323-bet.

biriga o‘rtacha 3 desyatina yer to‘g‘ri kelgan¹. Dehqonchilik ekinlarini yetishtirish okrug miqyosidagi tumanlarda turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, Koson, Beshkent va G‘uzor tumanlarida asosan sug‘orma dehqonchilik bo‘lsa, Tangiharam rayonida esa uning aksi bo‘lgani kuzatiladi. Qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bog‘dorchilik okrugda unchalik rivojlanmagan. Okrugda bog‘dorchilikka moslashtirilgan yerlarning umumiyligi miqdori 2048 desyatini tashkil etib, uning 90 foizi Shahrisabz tumaniga to‘g‘ri kelgan. Uzumzorlarning katta qismi Shahrisabz, Koson va Beshkent tumanlarida joylashgan edi.

Chorvachilik Qashqadaryo okrugida xalq xo‘jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Zero, o‘sha davr manbalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, chorva mahsulotlarini yetishtirish, chorva mollarini ko‘paytirishda Qashqadaryo respublikada oldingi o‘rinlarda bo‘lgan. Okrug bo‘yicha chorva mollarining umumiyligi miqdori 1 344 235 bosh bo‘lib, yirik qoramollar 161 730 boshni, otlar 34 140 boshni, tuyalar 16 933 boshni va qo‘ylar 850 228 boshni tashkil etgan². Shundan ko‘rinib turibdiki, chorvachilikda mayda qoramollar boqish, ya’ni qo‘ylar va echkilar yetishtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ular jami chorva mollarining o‘rtacha 80 foizini tashkil etgan. Chorva mollari okrugning har bir xo‘jaligiga o‘rtacha 17-18 boshdan to‘g‘ri kelgan.

Qashqadaryo okrugida savdo-sotiq munosabatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u o‘ziga xos ravishda tashkil etilgan. Okrug hududida aholi iste’mol ehtiyojlarini qondirish uchun 23 ta bozor faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning joylashuvi tumanlarning iqtisodiy-siyosiy holati, shart-sharoitidan kelib chiqib turlicha bo‘lgan. Masalan, Chiroqchi, Beshkent tumanlarida 5 ta, Tangiharam, Koson tumanlarida 4 ta, Shahrisabzda 2 ta, Kitob, Yakkabog‘ va G‘uzor tumanlarida esa 1 ta bozor faoliyat yuritgan³. Bu bozorlar Qashqadaryo okrugidagi shahar va qishloqlarni o‘zaro bog‘lab turgan. Bozorlar o‘sha paytda aholining asosiy oldi-sotdi joylari bo‘lib, ular o‘lkaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan. Bozorlarga turli xil iste’mol mollari va xomashyo materiallari turli yo‘llar orqali yetkazib berilgan hamda savdo aloqalari

1 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar, 323-bet.

2 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar, 324-bet.

3 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko‘rsatilgan asar, 324-bet.

tumanlarning iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Savdo aloqalari okrug doirasidagi tumanlar bilan chegaralanmasdan, qo'shni okruglar bilan ham olib borilgan.

Okrug bo'yicha umumiylar shoxobchalarini 2032 ta bo'lib, uning 23 tasi davlatga qarashli, 26 tasi tijorat va 1983 tasi xususiy bo'lgan. Xususiy savdo shoxobchalarining aksariyati belgilangan bozor kunlarida ishlagan. 1925-yilning birinchi yarmida bu savdo shoxobchalarining jami pul aylanmasi 6 696 000 rublni tashkil etgan bo'lib, buning 2 383 000 rubli davlat shoxobchalariga, 377 000 ming rubli tijorat shoxobchalariga va 3 936 000 rubli xususiy savdo shoxobchalari hissasiga to'g'ri kelgan¹.

Qashqadaryo okrugining transport aloqalar tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Okrugda temir yo'llar muhim ahamiyatga ega hisoblanib, okrugning iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'rta Osiyo temir yo'llarining muhim va asosiy nuqtasi hisoblangan Kogon shahridan boshlangan asosiy temir yo'l yo'naliishi Qashqadaryo okrugi orqali Turkmaniston SSRga o'tib ketgan. Bundan tashqari Qarshidan Kitobgacha bo'lgan asosiy temir yo'l yo'naliishi ham mavjud bo'lgan. Okrug bo'yicha jami temir yo'llarning uzunligi 266 chaqirimni tashkil etib, bu temir yo'llarda Nishon, Muborak, Koson, Qarshi, Mang'it, G'uzor, Yakkabog' va Kitob temir yo'l bekatlari faoliyat yuritgan. Okrugda temir yo'llardan tashqari, markaziy manzillarni bir-biri bilan bog'lovchi turli xil yo'llar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, 5 ta transport qatnovi uchun mo'ljallangan yo'llar va okrugning sharqiy qismida esa tog' yo'llar, ya'ni karvon yo'llari ham faoliyat yuritganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Behbudiy shahri rayonlashtirish davrida okrugning ma'muriy-iqtisodiy markazi hisoblanib, shaharda 3 417 ta xo'jalik istiqomat qilgan.² Rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida okrugda 14 ta volost, 52 ta qishloq soveti ro'yxatga olingan. Keyinchalik ular o'rnida 8 ta tuman va 167 ta qishloq soveti, ularning 146 tasi o'zbeklar, 8 tasi tojiklar,

1 O'sha joyda.

2 Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. Ko'rsatilgan asar, 325-bet.

5 tasi arablar, 4 tasi turkmanlar va qolganlari kam sonli millatlardan iborat qishloq sovetlari tuzish loyihalashtirildi va bu loyiha amalga oshirildi.

1927-1929-yillarda Qashqadaryo okrugida yer-suv islohoti amalga oshirilgan. Bu jarayonda sovet hukumati o‘ziga to‘q dehqonlarni “quloq” sifatida badarg‘a qilish uchun zamin tayyorlagan. 1930-yil 26-yanvarda VKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi (raisi – I.A.Zelenskiy) o‘z majlisida “Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog‘liq tadbirlar to‘g‘risida”gi masalani ko‘rib chiqadi. Qarshi va uning atroflarida yashovchi o‘ziga to‘q va o‘rtahol dehqonlarning aksariyati qataq‘onlarning qurboni bo‘ldi. Qarshilik dehqonlar bunday sharoitda aksariyat hollarda sovet tuzumiga qarshi stixiyali ravishda norozilik bildiradi. Masalan, 1928-1930-yillarda Qashqadaryo okrugida 48 marta (faqat 1929-yilda 42 marta) dehqonlarning ommaviy norozilik g‘alayonlari ko‘tarilgan.

Qarshi shahri Qashqadaryo vohasi va viloyat markazi sifatida XX asrning 30-yillaridan boshlab xo‘jalik yuritishning sotsialistik uslubi – rejali iqtisodiyot hamda qattiq markazlashtirilgan xalq xo‘jaligi boshqaruvi negizida rivojlandi.